

MOLIYAVIY HOLAT TAHLILI VA UNI TAKOMILLASHTIRISHNING MUHIM JIHA TLARI

Raximov Matnazar Yusupovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti professori

raximovmy@mail.ru

ANALYSIS OF THE FINANCIAL SITUATION AND IMPORTANT ASPECTS OF ITS IMPROVEMENT

Raximov Matnazar Yusupovich

Professor of Tashkent State University of Economics

raximovmy@mail.ru

JEL classification: G10 G18

Annatsiya: mazkur maqolada moliyaviy holat tahlilining, ya'ni korxona aktivlari va ularni moliyalashtirishning muhim manbaalari bo'lgan kapital va majburiyatlarning gorizontol, vertikal va trendli tahlilini amalga oshirish, likvidlik va to'lovga qobilyatlikni baholash, moliyaviy barqarorlik, ish aktivligini o'rganish, iqtisodiy nochorlik, faoliyat natijaviyligi va uning kutilishlarini iqtisodiy tashxislashning muhim jihatlari ochib berilgan.

Kalit so'zlar: moliyaviy holat, moliyaviy holat tahlili, aktiv, kapital, majburiyat, likvidlik, to'lovga qobilyati, moliyaviy barqarorlik, moliyaviy natija, foyda, zarar, rentabellik, ish aktivligi, iqtisodiy nachorligi.

Annotation. This article reveals the important aspects of the analysis of the financial situation, that is, the horizontal, vertical and trend analysis of the company's assets and capital and liabilities, which are important sources of their financing, the assessment of liquidity and solvency, the study of financial stability, business activity, economic insolvency, the effectiveness of activities and the economic diagnosis of its expectations.

Key words: financial condition, financial condition analysis, asset, capital, liability, liquidity, solvency, financial stability, financial result, profit, loss, profitability, business activity, economic insolvency.

Kirish. Moliyaviy holat tahlili– korxonalar faoliyatini baholashning muxim elementi sifatida aktivlar(resurslar) holatini, ularni moliyalashtirish manbaalarini, aktivlarni pulga aylanuvchanlik darajasini, to'lovga qobilligini, aylanma aktivlarni moliyalashtirishga o'z mablag'larining etarligi va etishmasligini, ish aktivligini, iqtisodiy nochorlik va ular yuzaga keltiruvchi oqibatlarini moliyaviy hisobotning axborotlar bazasiga tayangan holda davriy, qiyosiy va omilli o'rganishning murakkab tuzilmasiga ega jarayon hisoblanadi. Quyida, Olmaliq kon metallurgiya kombinati aksiyadorlik jamiyati ("Olmaliq KMK" AJ)ning moliyaviy hisobot ma'lumotlariga tayangan holda tahlil etishning metodolik jihatlarga, rivojlanishning imkoniyatlariga, muammolari va echimlariga to'xtalib o'tamiz.

"Olmaliq KMK" AJ tog'-kon sanoatining muhim sub'ekti sifatida, mamlakat iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishida ham strategik ahamiyatga ega korxona

hisoblanadi. Ushbu jamiyatda 33 mingdan ortiq xodim faoliyat yuritadi. Yillik ishlab chiqarish va savdo (2024 yil yakuni bo'yicha) aylanmasi 38 trln so'mga, faoliyatdan olingan yalpi daromad 15 trln so'mga, sof foyda hajmi 7.7 trln so'mga, mehnat xaqi fondi 3.5 trln so'mga teng. "Olmaliq KMK" AJ o'tgan yilda (2024 yil) davlat byudjetiga 11 trln so'mga yaqin soliq tushumlarini amalga oshirgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqotda xo'jalik yurituvchi sub'ektlarni moliyaviy holatini tahlil etishning oddiy ananaviy usullari, iqtisodiy matematik usullari hamda iqtisodiy tahlilning maxsus (gorizonlar, vertikal, trend, koeffitsientli, qiyosiy, omilli tahlil) usullaridan foydalanildi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi. Xo'jalik yurituvchi sub'ektning iqtisodiy va moliyaviy faoliyatining muhim tasnifiy jihatlarini xarakterlovchi moliyaviy holat tushunchasi-keng doiradagi qiziquvchilarning e'tiboridagi, sub'ektning jozibadorligini tavsiflovchi eng muhim kategoriya hisoblanadi.

Moliyaviy holat tahlili bo'yicha chop etilgan adabiyotlarni kuzatish asosida shunday xulosaga kelish mumkinki uni amalga oshirishning yagona tartibi va metodik yondashuvi haligacha to'liq hal qilinmagan.(1, 3)

Moliyaviy holat tahlilida o'rganiladigan ko'rsatkichlarning qatorida ham, ularni aniqlashning yondashuvlarida ham, me'yoriy miqdorlarning belgilanishida ham, shuningdek uning shakli va texnikasida ham umumiy bir xillikni kuzatish qiyin.(5, 7)

Klassik tahlil maktabi olimlarining tadqiqotlarida moliyaviy holat tahlilining mazmunida-moliyaviy hisobotning muhim shakli bo'lgan moliyaviy holat (buxgalteriya balansi) to'g'risidagi hisobotning muhim elementlarini va ularning tarkibiy o'zgarishlarini, biznes va boshqaruv

maqsadlaridan kelib chiqqan holda iqtisodiy va moliyaviy salohiyatini, uning to'lovga qobiliyati va likvidligini baholashning, aktivlarni moliyalashtirishda o'z va qarz mablag'larining holatini, iqtisodiy nochorlik va ularning kutilishlarini, investitsion faollik, ish va bozor aktivligini baholash orqali ichki va tashqi sub'ektlarning muhim boshqaruv qarorlariga kelishdagi joriy, tezkor va istiqboldagi xatti-harakatlarining muhim xulosalarini shakllantirishdan iborat aniq, ilmiy, ijodiy ishlarning jihatlariga ustivorlik beriladi.(6, 8)

Zamonaviy tahlil maktabi olimlarining qarashlarida klassik tahlil maktabi vakillarining ilmiy echimlaridan farqli ravishda moliyaviy holat tahlilida biznes jarayonlar, ularning samarasi va natijasini turli risklarga bog'lagan holda o'rganishning noan'anaviy usullarini, modeli va ekonometrik bog'lanishlarda xo'jalik yurituvchi sub'ektlarini iqtisodiy va moliyaviy rivojlanishining muhim yo'nalishlarini ko'rsatib berish, aniqlangan imkoniyatlarni ishga solish, faoliyat va biznes samaradorligi va natijaviyligini oshirishdagi muqobil echimlarini berish, muhim chora-tadbirlarini belgilashga muhim ahamiyat qaratiladi.(9, 10)

Ananaviy iqtisodiy tahlil, moliyaviy hisobot tahlilida eng dolzarb muammolardan biri bu-xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning iqtisodiy nochorligi, bankrotligi, to'lovga qabilyatsizligi, jozibadorligi, risklarga bardoshligi, moliya brozoridagi xatti-harakatlariga bog'liq ravishda o'rganishning dolzarb masalalari bo'yicha ilmiy tadqiqotlarning sust kechayotganligi bilan izohlanadi.

Tahlil va natijalar. "Olmaliq KMK" AJ Markaziy Osiyo mintaqasidagi eng yirik tog'-kon sanoati korxonalaridan biridir. Jamiyatning ustav kapitali 2 407 trln so'mni tashkil etadi. Jamiyatning ustav kapitalida Davlatning ulushi 98,54%ni, jismoniy va

yuridik shaxslarning ulushi 1,46% ni tashkil qiladi.

“Olmaliq KMK” AJ tarkibiga oltin-mis ishlab chiqaruvchi uchta kon, polimetall rudalari er osti koni, uchta oltin rudalari er osti koni, beshta rudani boyituvchi, ikkita metallurgiya uchun sulfat kislota ishlab chiqaruvchi, nodir metallar va qattiq qotishmalar ishlab chiqaruvchi, ta’mirlash-mexanika zavodlari, ilmiy-ishlab chiqarish birlashmalari, , ohak zavodi, sanoat temir yo‘l transporti boshqarmasi, avtomobil bo‘limi, beshta avtobaza, uchta texnologik boshqarish bo‘limi, konni mexanizatsiyalash bo‘limi, xalq iste’moli mollari ishlab chiqarish bo‘limi va yigirmadan ortiq yordamchi ustaxonalar va laboratoriyalari kiradi.

Nodir, rangli va qimmatbaho metallarni qazib olishga hamda ularni qayta ishlashga ixtisoslashgan ushbu aksiyadorlik jamiyatida qazib olinayotgan ma’danlar tarkibida Mendeleev davriy jadvalidagi elementlarning deyarli barchasi mavjud.

Kombinatda ishlab chiqarilayotgan oltin va kumush London qimmatbaho metallar birjasining sifat belgisiga, xalqaro standartlashtirishning ISO-9001 sertifikatiga ega.

“Olmaliq KMK” AJda 2024 yil yakunlari bo‘yicha 38.1 trln so‘mlik asosiy

maxsulot, 7.3 mlyard so‘lim xalq istemoli mollari ishlab chiqarilgan va ishlab chiqarish ko‘rsatkichlari o‘tgan yilga nisbatan 116,1%ga bajarilgan. Jumladan, mis ishlab chiqarish 100 foizga, metalli rux 71,2 foizga, sulfat kislota 100,0 %, oltin 100,5%ga, kumush ishlab chiqarish 100,0 foizga bajarilgan. Yil yakuni bo‘yicha 610,9 mln.doll.lik (111,1 %) mahsulotlar eksport qilingan.

2024 yilda “Olmaliq KMK” AJda ishlab chiqarish quvvatini oshirish va xom ashyoni qayta ishlash uchun 1943,9 mln. dollar xajmidagi investitsiyalar o‘zlashtirilgan, shu jumladan, to‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy kreditlar – 1751,2 mln. doll.ni tashkil qilgan.

Quyida, “Olmaliq KMK” AJda (buxgalteriya hisobining milliy standartlari bo‘yicha) tuzilgan moliyaviy hisobotining umumlashgan ma’lumotlar bazasiga tayangan holda uning moliyaviy holatini tashxislab chiqamiz.

“Olmaliq KMK” AJning 2025 yil 1-yanvar holatiga buxgalteriya balansining qisqartirilgan shakli bo‘yicha iqtisodiy salohiyati (aktivlari) va moliyaviy salohiyati (kapitali va majburiyatlarini), hamda uning tarkibiy elementlarini quyidagi jadval ma’lumotlaridan ko‘rishimiz mumkin. (1-jadval)

1-jadval

“Olmaliq KMK” AJda moliyaviy holat va uning uzgarishlari tahlili (trln so‘mda)

Aktivlar	2024 yil 1-yanvar	2025 yil 1-yanvar	Kapital va majburiyatlar	2024 yil 1-yanvar	2025 yil 1-yanvar
1	2	3	4	5	6
Uzoq muddatli aktivlar	40.7	55.0	O‘z mablag‘lari manbaasi	24.3	29.3
Joriy aktivlar	14.3	18.1	Majburiyatlar	30.7	43.8
Balans	55.0	73.1	Balans	55.0	73.1

“Olmaliq KMK” AJda aktivlarining umumiy xajmi 2024 yil 1-yanvar holatiga 55 trln so‘mni, 2025 yilning 1-yanvar sanasiga 73.1 trln so‘mni tashkil qilgan. Aktivlarning asosiy qismini uzoq muddatli aktivlar tashkil qilgan va ularning jami aktivlar tarkibidagi salmog‘i o‘tgan davrda 74 foizni, joriy davrda 75 foizni tashkil qilgan. Aktivlarning o‘zgarishi +18.1 trln so‘mni yoki 33 foizga ortgan.

Moliyalashtirish manbaalarida o‘z mablag‘lari manbaasi 2024 yil 1-yanvar

sanasiga 24.3 trln so‘mni, 2025 yil 1-yanvar sanasiga 29.3 trln so‘mni tashkil qilgan. Jami moliyalashtirish manbaalarida o‘z mablag‘larining salmog‘i mos ravishda 44.1 foizdan 40.1 foizga tushgan.

“Olmaliq KMK” AJda aktivlarning mutlaq qiymati, ularning samaradorligi va natijaviyligini o‘rganmasdan turib ijobiy baholash qiyin. Shu sababli, quyida uning faoliyat samaradorligi va yakuniy natijalari bilan tanishib chiqamiz.(2-jadval)

2-jadval

“Olmaliq KMK” AJda moliyaviy natijalar tahlili (trln so‘mda)

Ko‘rsatkichlar	2023 yil	2024 yil	Farqi +,-
1	2	3	4
Sotishdan sof tushum	31.0	37.6	+6.6
Yalpi foyda	18.3	23.7	+5.4
Soliq to‘loviga qadar foyda	10.9	13.3	+2.4
Sof foyda	6.7	7.7	+1.0

“Olmaliq KMK” AJda sotishdan sof tushum o‘tgan yilga nisbatan 6.6 trln so‘mga yoki +21.2 foizga ($37.6/31 \cdot 100$) o‘sgan. Sotishdan olingan yalpi foyda joriy davrda 18.3 trln so‘mdan 23.7 trillion so‘mga, soliq to‘loviga qadar foyda summasi 10.9 trln so‘mdan 13.3 trln so‘mga, sof foyda summasi 6.7 trln so‘mdan 7.7 trln so‘mga o‘zgargan.

Xo‘sh, “Olmaliq KMK” AJning ish samaradorligi qanday? 73 tirillion so‘mlik aktivlarning xajmi faoliyat samaradorligi va natijaviyligining joriy holatiga mosmi? Buni aniqlash yuzasidan natijaviylikning baholashning nisbiy ifodalari: aktivlarning aylanuvchanligi (ROA-S); aktivlarning rentabellik (ROA-N) koeffitsentlarini aniqlaymiz. (3-jadval)

3-jadval

“Olmaliq KMK” AJda muhim samaradorlik va natijaviylik ko‘rsatkichlari tahlili

Ko‘rsatkichlar	2023 yil	2024 yil	Farqi	O‘sishi, %
1	2	3	4	5
Sof tushum (trln so‘m)	31.0	37.6	+6.6	+21.2
Aktivlar qiymati(trln so‘m)	55.0	73.1	18.1	+32.9
Sof foyda(trln so‘m)	6.7	7.7	+1.0	14.9
Aktivlar aylanuvchanligi(kaytimi) (ROA-S),so‘m	0.56	0.51	-0.05	-8.9
ROA-aktivlarning rentabellik koeffitsenti (ROA-N),	0.12	0.10	-0.02	-16.7

“Olmaliq KMK” AJda aktivlar va ularning moliyalashtirish manbaalaridagi ijobiy o‘zgarishlar bilan bir qatorda ulardan samrali foydalanish va faoliyat natijaviyligi bilan bo‘g‘liq bo‘lgan ko‘rsatkichlarda salbiy holatlar kuzatilgan. Jumladan, aktivlarning pul ishlab topish darajasi (aktivlar qaytimi) 0.05 darajaga, aktivlarning rentabellik darajasi 0.02 darajaga kam bo‘lgan. Ularning nisbiy usishi ham mos ravishda -8.9 foizdan -16.7 foizga kam bo‘lgan.

“Olmaliq KMK” AJning aktivlari likvidligi, tulov qobiliyati, moliyaviy barqarorligi, to‘lovga qobilyatsizligi, ish va bozor aktivligi ko‘rsatkichlari bo‘yicha holatni baholasak moliyaviy holatning boshqa, boshqa jihatlarini ochi berishimiz mumkin.

“Olmaliq KMK” AJning buxgalteriya balansi ma‘lumotlariga tayangan holda

aktivlarning likvidlik ko‘rsatkichlarini baholaymiz. Aktiv va passivlarning buxalteriya balansining jamlangan qatorlariga mos ravishda quyidagi tarkibini tuzib chiqamiz. Ya’ni, jami aktivlarni(A)-doimiy harakatdagi aktivlar(A1), tez pulga aylanadigan aktivlar(A2), sekin pulga aylanadigan aktivlar(A3)dan iborat joriy aktivlarga hamda qiyin pulga aylanadigan aktivlarga(A4) tarkiblaymiz.

Mos ravishda passiv (P) tamondagi jamlangan qatorlar va ularni tarkibiy qismlarini qayta korrekktirovkalash asosida kreditorlik majburiyatlari(P1), qisqa muddatli kreditlar va qarzarlar(P2)dan iborat joriy majburiyatlarni, uzoq muddatli kreditlar va qarzarlar(P3)ni, o‘z mablag‘lari manbaasidan iborat doimiy passivlar(P4) qatorini tarkiblaymiz(4-jadval).

4-jadval

“Olmaliq KMK” AJda buxgalteriya balansi likvidligi tahlili (trln so‘m)

Aktivlar	Davr boshiga	Davr oxiriga	Kapital va majburiyatlar	Davr boshiga	Davr oxiriga	Ortiqchalik + etishmovchilik -	
						Davr boshida	Davr oxirida
1	2	3	4	5	6	7	8
Kiyin pulga aylanadigan aktivlar (A4)	40.7	55	Doimiy passivlar(P4)	24.3	29.3	+16.4	+25.7
Sekin pulga aylanadigan aktivlar(A3)	6.1	7.4	Uzoq muddatli majburiyatlar(P3)	21.8	28.8	-15.7	-21.4
Tez pulga aylanadigan aktivlar(A2)	7.8	10.5	Qisqa muddatli majburiyatlar(P2)	4.9	3.6	+2.9	+6.9
Doimiy harakatdagi aktivlar(A1)	0.4	0.2	Kreditorlik majburiyatlar(P1)	4.0	11.4	-3.6	-11.2
Jami	55.0	73.1	Jami	55.0	73.1	-	-

“Olmaliq KMK” AJning doimiy harakatdagi aktivlari (A1) kreditorlik

majburiyatlar (P1)ni qoplashga etishmovchiligi o‘tgan yil -3.6 trln so‘mni,

davr oxirida -11.2 trln so'mga ortgan. Xuddi shu holatni talab qilingan me'yorlarga nisbatan keyingi qatorlari ya'ni, sekin sotiladigan aktivlar va uzoq muddatli aktivlar qatorida ham ko'rish mumkin. Talab

qilingan holatga nisbatan farqlanishlar belgisi, real ifodasi va kombinatdagi likvidlik darajasini quyidagi jadvalda aks ettiramiz (5-jadval).

5-jadval

"Olmaliq KMK" AJda likvidlik bo'yicha talablar bajarilishi

Talab qilingan me'yor	Kombinatdagi real holat	Izox
$A1 < P4$	$A4 > P4$	Me'yor bajarilmagan
$A3 > P3$	$A3 > P3$	Me'yor bajarilmagan
$A2 > P2$	$A2 < P2$	Me'yor bajarilgan
$A1 > P1$	$A1 > P1$	Me'yor bajarilmagan

"Olmaliq KMK" AJ moliyaviy holatiga aktivlarning likvidlik darajasi bo'yicha baho beradigan bo'lsak talablarning faqat 1 ta sharti bajarilgan xalos, uchta shart esa bajarilmagan. Amaldagi tartib bo'yicha talab qilingan me'yorning har bitta qatoridagi buzilish nolikvidlikni xarakterlaydi. Doimiy passivlar bilan qiyin pulga aylanadigan aktivlar, shuningdek, sekin pulga aylanadigan aktivlar bilan uzoq muddatli kreditlar va qarzlarning qoplanishi, tez doimiy harakatdagi aktivlar bilan kreditorlik majburiyatlari qoplanishidagi etishmovchilik balans likvidligini buzgan.

Likvidlikning yuqoridagi ma'lumotlar bazasiga tayangan holda korxonaning to'lov layoqatini ham baholash mumkin.

Likvidlikdagi qatorlar bo'yicha mutlaq ko'rsatkichlarning mos va jamlangan qatorlari bo'yicha nisbiy ifodalarida to'lov layoqati ko'rsatkichlariga baho beriladi.

Ya'ni, to'lov layoqatining umumiy ko'rsatkichi joriy aktivlarni ($A1 + A2 + A3$) joriy majburiyatlarga ($P1 + P2$) bo'lish orqali topiladi. Uning keyingi qatorlari bo'yicha joriy aktivlarning alohida birliklari olinadi va to'lov layoqatining oraliq ($A1 + A2$) / ($P1 + P2$) hamda mutlaq ($A1/P1$) ko'rsatkichlari aniqlanadi.

Ushbu uchta ko'rsatkichning aniqlash tartibini va hisob-kitoblarini quyidagi jadvalda ifoda etish mumkin. (6-jadval)

6-jadval

"Olmaliq KMK" AJ to'lov layoqatining tahlili

Ko'rsatkichlar	Hisobot davri boshiga	Hisobot davri oxiriga	Farqi
To'lov mablag'lari jami ($A1 + A2 + A3$) shu jumladan:	14.3	18.1	+3.8
Doimiy harakatdagi aktivlar ($A1$)	6.1	7.4	+1.3
Tez pulga aylanadigan aktivlar ($A2$)	7.8	10.5	+2.7
Sekin pulga aylanadigan aktivlar ($A3$)	0.4	0.2	-0.2
Joriy to'lov majburiyatlari ($P1 + P2$)	8.9	15.0	+6.1
Mutlaq to'lov layoqati koeffitsienti ($A1/P1 + P2$)	0.04	0.01	-0.03

Oraliq to'lov layoqati koeffitsenti ($A1+A2/P1+P2$)	0.92	0.71	-0.21
Umumiy to'lov layoqati koeffitsenti $A1+P2+A3/P1+P2$)	1.6	1.21	-0.39

Hisobot davrining oxiriga kelib "Olmaliq KMK" AJda to'lov layoqati keskin tushib ketgan va to'lov layoqatining har uchta ko'rsatkichda ham salbiy tendensiya kuzatilgan. Umumiy to'lov layoqati va mutlaq to'lov layoqati ko'rsatkichlarida talab qilinadigan me'yor (2-3; 0.25-0.30) bajarilmagan. Xulosa qilish mumikinki, likvidlik va to'lov layoqatidagi real o'zgarishlar korxona moliyaviy holatining keskin yomonlashayotganligidan dalolat beradi. Ish samradorligi va natijaviyligidagi ijobiy o'zgarishlarni bir qatorda moliyaviy

holatning nisbiy ifodalarida afsuski ahvol yomonlashayotganligini ko'rish mumkin.

Korxona moliyaviy holatiga baho berishdagi eng muhim ko'rsatkichlardan bittasi bu moliyaviy barqarorlik ko'rsatkichi hisoblanadi.

Moliyaviy barqarorlik tahlilida quyidagi ko'rsatkichlar baholanadi: moliyaviy barqarorlik koeffitsenti; moliyaviy mustaqillik koeffitsenti; moliyaviy qaramlik koeffitsenti; xususiy kapital konsentratsiya koeffitsenti; o'z va qarz mablag'lari nisbati koeffitsenti.

7-jadval

"Olmaliq KMK" AJda moliyaviy barqarorlik ko'rsatkichlari tahlili

	Aniklash formulasi	Me'yoriy talab	Davr boshiga	Davr oxiriga	Farqi
Moliyaviy barqaroorlik koeffitsenti	Xususiy kapital+Uzoq muddatli majburiyatlar/oborotdan tashqari aktivlar	0.8-0.9	1.13	1.05	-0.08
Avtonomiya koeffitsenti	Xususiy kapital/Aktivlar jami	0.5 dan katta	0.44	0.40	-0.04
O'z va qarz mablag'lari nisbati koeffitsenti	Majburiyatlar/Xususiy kapital	1 dan kichkina	1.26	1.49	+0.23
Manyovrlik koeffitsienti	O'z mablag'lari manbaasi-O'zoq muddatli aktivlar/O'z mablag'lari manbasi	0.2-0.5	-0.67	-0.87	-0.20
Tovar moddiy zaxiralarning o'z mablag'lari hisobiga moliyalashtirish koeffitsenti	O'z mablag'lari manbaasi-O'zoq muddatli aktivlar/Tovar-moddiy zaxiralar	0.6-0.8	-2.68	-3.47	-0.85

Kombinatda moliyaviy barqarorlik koeffitsenti davr boshiga 1.13 darajadan, davr oxiriga kelib 1.05 darajaga tushgan. Aktivlarni o'z mablag'lari manbaasi hisobiga moliyalashtirishning nisbiy ifodasi davr

boshida 0.44 darajani, davr oxiriga 0.40 darajaga teng bo'lgan.

Monyovrlik koeffitsenti, tovar moddiy zaxiralarning o'z mablag'lari

hisobiga moliyalashtirish
koeffitsientining manfiy ifodasi
kuzatilgan.

Xulosa. Moliyaviy holat sifatini belgilovchi muhim omillar qatoriga iqtisodiy va moliyaviy salohiyatning mutlaq ifodasi, ularning ijobiy o'zgarishlari, resurslar va kapital tarkibidagi strukturaviy o'zgarishlar, samaradorlik va natijaga bog'langan nisbiy ifodalaridagi me'yoriy talablarning bajarilishi muhim omil hisoblanadi.

Moliyaviy holat tahlili orqali nafaqat erishilgan natijalar, yutuqlari, balki, ularni yanada yaxshilash imkoniyatlari ham, yo'qotishlar va ularning oldini olishning ham muhim chora-tadbirlari belgilanadi. Biroq, amaldagi moliyaviy holat tahlilida va uning metodologik jihatlarida qator kamchiliklarga yo'l qo'yilmoqdagi bu o'z navbatida real holat va uni to'g'ri talqin qilishda olib kelmoqda.

Jumladan, moliyaviy holat va undagi kamchiliklarni oldini olishda zamonaviy, yagona tahliliy yondashuvning yo'qligi ham holatni to'g'ri baholashda imkon bermayapti.

Eng muhim muammolardan bittasi bu moliyaviy holat tahlilida qaysi ko'rsatkichlar tizimi baholanishi bog'liq muammodir. Odatda moliyaviy holatni baholashda faqat buxgalteriya balansida aks etadigan manbaalarga urg'u berilishi notg'o'ri. Chunki moliyaviy holat bu faqat aktivlar, kapital va majburiyatlarning, ularning tarkibiy birliklarining mutlaq o'zgarishlari, nisbiy ifodalari bilan shuningdek, tulov layoqati, likvidligi, moliyaviy barqarorlik ko'rsatkichlari orqali baholanadigan oddiy jarayon emas. Bu bevosita, faolyait va biznes samaradorligi, natijaviyligi, xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning ish va bozor aktivligi, iqtisodiy qudrati va nochorligi bilan bog'liq bo'lgan ko'rsatkichlarni ham o'rganishni nazarda tutadi. Shu sababli, moliyaviy holatni faqat buxgalteriya balansi ma'lumotlari asosida o'rganiladigan

mavzular doirasidagi mazmunini shakllantirish noto'g'ri bo'ladi. Ya'ni, moliyaviy holat tahlili faqat menejerlar uchungina emas balki qiziquvchilarning keng guruhi uchun ham ahamiyatli ekanligidan turli risklarni baholashni ham talab etmoqda. Amaldagi holatda esa ushbu masala chetda qolgan.

Ishonch mezonlari aniq belgilangan va chuqurlashtirilgan moliyaviy holat tahlilini amalga oshirishning zamonaviy shaklini yo'lga qo'yishdagi yondashuvlar afsuski tahlilning eng dolzarb masalasi bo'lib qolmoqda. Bu borada, menejerlar va qiziquvchilarni keng doirasi uchun moliyaviy holat tahlilining milliy va xalqaro segmentini yagona bir tizimga keltirish zarurligidan tahlilning metodologik bazisini qayta tuzib chiqish talab etilmoqda.

Metodologik asosning yagona tartibiga kelishda uning tadqiq etish birliklarini, ko'rsatkichlar tizimi, baholash indikatorlarini aniq klassifikatsiyasini tuzib zarur. Xozirgi holatda esa ularning dunyo amaliyotida yuzlab yondashuvlari va farqli jihatlarini kuzatish mumkin. To'g'ri, qaysidan ma'noda farqli jihatlarining bo'lishi tabiiydir. Biroq, bu farqli jihatlar turlicha talqinga olib kelmasligi lozim. Ayniqsa, tahliliy ko'rsatkichlarga nisbatan me'yoriy talablarning belgilanishida rivojlangan G'arb dunyosi bilan milliy iqtisodiyotdagi xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning farqli ustunliklari ob'ektni to'g'ri talqin qilishga ta'sir qilmasligi lozim.

Fikrimizning isboti sifatida shuni ta'kidlashimiz lozimki moliyaviy holatni baholash va tahlil etishda bitta indikator yoki ko'rsatkichning turlicha nomlanishi tahlil sub'ektlarini eng ko'p chalg'ituvchi, noto'g'ri xulosalarga va boshqaruv qarorlariga olib kelishiga sabab bo'lmoqda.

Metodologik asos ko'p jihatdan saxo bo'yicha xuquqiy normalarining belgilanishidagi muammolar bilan ham

bog'lanadi. Xukukiy normalari belgilangan, aksiyadorlik jamiyatlarining muhim samaradorlik ko'rsatkichlarini baholashdagi talablar ham uning turli korxonalarda turlicha metodika va tartiblar aniqlanishidan ham ortiqcha va hech qanday ta'sirga ega bo'lmagan tahliliy amallar amalga oshirilayotganligi ham fikrimizning isboti hisoblanadi.

Shuningdek, mavjud adabiyotlarda tavsiya etiladigan, iqtisodiy mutaxassislarni tayorlashda o'qitiladigan fan modullarida ham xuddi shu muammoni ko'rish mumkin.

"Olmaliq KMK" AJ moliyaviy holatini yuqoridagi natijalariga tayangan

holda shunday xulosaga kelish mumkinki, mazkur metodik yondashuv kombinatdagi real holatni to'g'ri baholashga imkon bermaydi. Negaki, ishlab chiqarishda yuqori o'sish suratlarga ega bo'lgan, aktivlarning xajmi juda yuqori bo'lgan, ishlab chiqarish samaradorligi va natijaviyligini bir tarkibli o'rganishdagi natijasi ijobiy bo'lgan, investitsiya oqimining maqbul echimlariga ega bo'lgan, xalqaro sifat sertifikatlariga hamda ulkan eksport salohiyatiga ega bo'lgan korxonani iqtisodiy nochorlik, ish va bozor aktivligi, riseklardan ximoyalanganlik darajasi bo'yicha taxlikali korxonalar qatoriga kiritib quyishga sabab bo'lmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. И. Т. Абдукаримов Финансово-экономический анализ хозяйственной деятельности коммерческих организаций. Учебное пособие / И. Т. Абдукаримов, М. В. Беспалов. – М.: ИНФРА-М, 2023. – 320 с.
2. Е.В. Никифоров. Анализ финансовой отчетности: Учебник - М.: ИНФРА-М, 2023. – 211 с.
3. М.А. Вахрушина. Анализ финансовой отчетности : Учебник - М.: ИНФРА-М, 2024. – 434 с.
4. Ю.И. Сигидова. Анализ финансовой отчетности : Учебник / - М.: ИНФРА-М, 2023. – 356 с.
5. Н. А. Казакова. Анализ финансовой отчетности.– М.:Юрайт, 2024. – 233 с.
6. М.Қ. Pardaev va boshqalar. Moliyaviy va boshkaruv tahlili, Darslik.T.:Chulpon. 2012,, 490 b.
7. М.Қ. Pardaev, В.І.Іsroilov. Iqtisodiy tahlil T.: Iqtisod va xuquq dunyosi 2011, 452 b.
8. М.Қ.Pardayev, J.І.Іsroilov, В.І. Іsroilov Iqtisodiy tahlil. O'quv qo'llanma. T.:Print Line Group, 2017.-533 b.
9. М. Yu. Raximov. Iqtisodiyot sub'ektlari moliyaviy holatini tahlili T.: Iqtisod-moliya. 2015, 356 b.
10. М.Yu. Raximov, N.N. Kalandarova. Moliyaviy tahlil. Darslik. T.: Iqtisod-moliya. 2019, 750 b.
11. М.Yu. Raximov, O.T. Astanokulov, N.N. Kalandarova. Iqtisodiyot sub'ektlari moliyaviy holatining tahlili. T.: Iqtisod-moliya 2021 y. 435 b.
12. М.Yu. Raximov, N.N. Mavlanov, N.N.Kalandarova. Iqtisodiy tahlil. T.: Iqtisod-moliya 2021 y. 346 b.
13. Н. С. Пласкова. Анализ финансовой отчетности, составленной по МСФО. Учебник. – М.: ИНФРА-М, 2024. – 276 с.



14. А. Д. Шеремет. Анализ и диагностика финансово-хозяйственной деятельности предприятия : Учебник. – М.: ИНФРА-М, 2024. – 374 с.
15. Т. И. Григорева. Анализ финансового состояния предприятия. М.: Юрайт. 2023. 487 с.
16. O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi - <https://www.lex.uz>
17. Milliy statistika qo'mitasi - <https://www.stat.uz>
18. O'zbekiston respublikasi istiybolli loyihalar milliy agaentligi korporativ axborot yagona portali-<https://www.openinfo.uz>